

AL-HAKIM AT-TERMIZIY MAQBARASI

Sa'dullayeva Nigora Bahrom qizi¹

Qo'shoqov Behruz Umid o'g'li²

Ismoilov Quvonchbek Abdulaziz o'g'li³

Annotatsiya: Ushbu maqolada Al-Hakim at Termiziy maqbarasining arxitekturasi, tarixi va an'anasi haqida keltirilgan. Maqbara Al-Hakim at Termiziy nomiga qurdirilgan bo'lib, uning hozirgi arxitekturasi juda ko'rkam qilib ishlangan. Maqbara islom dinida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ziyoratgoh hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Ziyoratgoh, maqbara, ravoq, gumbaz, majmua, ustun, peshtoq, peshayvon, xonaqoh, marmar, masjid, qorixona, hujra, namozxona.

Termiziy me'moriy majmui, Hakim Termiziy maqbarasi – Termizdagi me'moriy yodgorlik (9—15-asrlar). Musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan Al Hakim at-Termiziy maqbarasi qadimgi Termiz shahrining chekkasida joylashgan. Maqbarada buyuk islom arbobi, turli falsafiy va diniy asarlar muallifi, darveshlar jamoasining yaratuvchisi Abu Abdulloh ibn Hasan ibn Bashir al-Hakimiy at-Termiziy maqbarada dafn etilgan. Majmua Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy (taxminan 750—760 Termiz – 869) nomi bilan bog'liq. Bu maqbarada Termiziyning qabri joylashgan. Termiziy me'moriy majmui asrlar davomida bir necha bor qayta qurilgan. Bugungi kunda bu majmua vohaliklar va viloyat mehmonlari uchun asosiy ziyorat manzilgohlaridan biri hisoblanadi.

Tuzilishi Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat bo'lgan. Majmuaning umumiy maydoni 28.0x29.0 metr bo'lib, shundan maqbara 5.10x4.70 metrni tashkil etadi. Rivoyat qilinishicha dastlab xom g'ishtdan xonaqoh (9-asr) bunyod etilib, Hakim Termiziy shu yerda yashab mudarrislik qilgan. Binodan keng hovlining bir qismi, qalin devor to'siq va shimoli-sharqiy burchagida uncha katta bo'lmagan yerto'lasimon hujra saqlangan. Vaqtlar o'tishi bilan qabr ustiga, xonaqohning janubi-g'arbiy burchagida xom g'ishtdan janubga qaratib maqbara bunyod etilgan (9-asr). Termiziy maqbarasi xalq orasida ulug'lanib avliyo qabri, muqaddas ziyoratgoh sifatida e'zozlangan. Keyinchalik maqbaraning sharqiy devoriga tutashirib kichik qorixona va o'g'li al-Hakim Abdulloh maqbarasi (10-asr), shim.da uncha katta bo'lmagan hovliga qaragan 3 gumbazli, ravoqli yo'lak ko'rinishidagi namozgoh masjidi (11—12-asrlar) hamda bir qator qo'shimcha xonalar qo'shilgan.



¹ Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti - "Ma'daniy meros ob'ektlarini asrash" kafedrası o'qituvchisi nigorasadullayeva21@gmail.com

² Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabasi 101-MMOA guruh talabasi


³ Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Unversiteti talabasi 101-MMOA guruh talabasi





At-Termiziy majmuasi hududida shuningdek, chillaxonalar ham joylashgan. Mazkur chillaxonalar milodiy V-X asrlarga oid tarixiy gʻor inshooti hisoblanadi. Majmua xalq orasida Termiz-ota deb ham nomlanadi. Afsonaga koʻra, oʻn yoshida unga vahiy kelib, bir qariya unga bilim bergan. Vaqt oʻtishi bilan Termiziy shuhrat qozongan, lekin ota-onasining uyida kamtarona yashashni davom ettirgan. Hakim at-Termiziy shahid sifatida vafot etgan – qarilik chogʻida shaharga bostirib kirgan dushmanlar uni boshidan judo qilganlar (IX asr oxiri). Afsonaga koʻra, Chingizxon ushbu noyob durdonadan hayratda qolgan, oʻz qoʻshiniga yodgorlikka zarar bermaslikni buyurgan, chunki u bu binoni odamlar emas, balki xudolar yaratgan deb ishongan. Maqbara ustida gumbaz koʻtarilgan, bino ichida esa juda hashamatli bezaklar bor. Marmardan yasalgan va noyob naqshlar va arab yozuvlari bilan bezatilgan avliyoning qabr toshli diqqatni oʻziga tortadi. Ansamblning yonida sal keyinroq qurilgan jome masjid joylashgan. At-Termiziy majmuasi hududida yana bir nechta qiziqarli diqqatga sazovor joylar mavjud: Chillaxonalar – milodiy V-X asrlarga oid qadimiy gʻor inshootlari, qadimgi Tarmita shaharchasining xarobalari (Eski Termiz), Termiz shahri va Termiz shahar muzeyi.

Hakim at-Termiziy mashxur soʻfiy shaxs hisoblanadi. Olimlarning aniqlashicha uning 400 dan ortiq asari mavjud boʻlib, shularning bor yoʻgʻi 60 tasi bizgacha yetib kelgan. Hakim at-Termiziy dushmanlari tomonidan oʻldirilib, boshi uzib tashlanadi. Soʻngra shu majmuada joylashgan maqbaraga dafn etiladi. Mazkur yodgorlik 4 boʻlma (xona) dan iborat yaxlit bino koʻrinishida tiklangan. Shimoliy-sharqiy tomonida ayvon qurilishi sababli xonalar soni 3 ta boʻlib qolgan. Xonaqoh yonidagi 3 ayvon gumbazli, qalqonsimon bagʻalli tarzda ishlangan. Xonaqoh gumbaz tomga ega, hamda oʻz mehrobi bor. Xonaqohning poli goʻrxonaga qaraganda ancha past hamda ularning oraligʻi rovoqlar bilan ajratib qoʻyilgan. Maqbara ganjkor bezaklar bilan bezatilgan. Tashqi devorlariga esa 6 gʻishtin ravoq ishlangan.



Hakim at-Termiziy maqbarasining kirish qismidagi peshtoqiga arabiy yozuvlar bilan bir qator jumlar bitilgan. Bu bitiklarda: “Alloh taolo zikr etadi: “Bu yerga tinchlik va omonlik bilan kiring”.” soʻzlari yozilgan. Termiziy maqbarasida taʼmirlash ishlari Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan 1996-yilda amalga oshirilgan.

Taʼmirlanishi

Temuriylar

hukmronligi davrida (15-asr) xonaqoh baland asos (balandligi 1,5 m) ustiga pishiq gʻishtdan qayta qurildi. Unga tutash boʻlgan xonalar



ta'mirlandi. Xonaqohning shimoliy va janubiy tomonlariga peshtoq ishlandi. Oddiy va aniq qurilmali xona devorlari ravoq ustunlari "romb" ko'rinishidagi poyustunga tayangan. Hakim Termiziy maqbarasi 9-asrda bunyod etilgan xonaqoh hujralaridan biri bo'lgan. Xonaqoh hovlisining g'arbidagi 3 gumbazli masjid maqbaraga tutash, 3 ravog'i hovliga qaragan. Masjidning g'arbiy devor markazida keng hoshiyali mehrob bor. Undagi bo'rtma yozuv, sopol shakllar, oraliq zaminidagi o'yma ganch bezaklar o'ziga xos. Masjid ustunlari g'ishtdan bezakli qilib terilgan. Masjiddan ravoq orqali maqbaraga o'tiladi. Maqbara ichi ganch o'ymakorligida gilam nusxa bezakda serhasham pardozlangan. Gumbaz osti sharafasida kufiy xatida Qur'onning 36surasi o'yib yozilgan. Xonaqoh ichi ham yulduzsimon girih naqshlar bilan pardozlangan. Ravoqlaridagi tobadonlariga panjaralar o'rnatilgan. Maqbara ichidagi oq marmar sag'ana temuriylar davridagi tosh o'ymakorligi san'atining yuksak namunasi. Sag'ana 3 pog'onali, asosi islimiy naqsh va yozuvli hoshiyalar bilan, o'rta qismidagi 3 mehrobiy tokchanning markaziy (o'rta) qismi muqarnas kosachalar bilan, 2 yoni shamchiroq tasviri bilan bezatilgan. Sag'anadagi yozuvlarda Termiziy hayoti va faoliyati tavsiflangan.

Kichik maqbarada ham ta'mirlash ishlari olib borilgan. Abdullaxon hukmrligi davri (16-asr)da hazira (hovli) hududida 9 gumbazli masjid (eski masjidni ham o'z ichiga olgan) qurilgan. Oldida yengil ravoq ustunli ayvon joylashgan. 19-asrda 9 gumbazli masjid o'rnida 4 gumbazli masjid bunyod etilgan. Janubdan kiraverishda yana bir maqbara (go'rxona va ziyoratxonadan iborat) qurilib, ravoqli bo'lmalar orqali Termiziy maqbarasi va xonaqoh bilan o'zaro bog'langan.

Termiziy me'moriy majmui 1995-1997-yillarda ilmiy o'rganilib 14— 15-asrlardagi ko'rinishi qayta tiklandi. 1980—1981-yil va 2001—2002-yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardozlandi. Marmar qabrtosh o'z joyidan Termiz muzeyiga qarashli qo'riqxonaga ko'chirib o'tkazilgan. Uning o'rniga esa maqbara ustiga ustalar tomonidan ishlangan qabrtosh nusxasi olib kelib, o'rnatilgan. Maqbara bir necha bora ta'mirlangan va qayta tashrif uchun ochilgan.

Xulosa: Surxondaryo viloyatida ham juda ko'p madaniy me'ros obyektlari bor. Ulardan biri bo'lgan bu Al-hakim at Termiziy ziyoratgohi islom dinida o'z mavqeyiga ega. Majmuani biz asrab avaylashimiz kerak va yosh avlodga ham uning tarixi haqda xabardor qilishimiz kerak. Majmua yurtimizning eng katta boyliklaridan hisoblanadilar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Marjona, K., & Nigora, S. (2023). BASIC PRINCIPLES ADAPTATION OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, 2(11), 68-70.
2. Nigora, S. (2023). STUDY AND SCIENTIFIC ANALYSIS OF CONSTRUCTIVE SOLUTION OF ARCHITECTURAL ELEMENTS USED IN CULTURAL HERITAGE OBJECTS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 602-605.
3. Nigora, S., & Marjona, K. (2023). OZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTARIDA QOLLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAF VA MUQARNASNING QOLLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI. *Miasto Przyszłości*, 42, 128-132.
4. Nayimovna, F. N., & Nigora, S. (2023). Researching Ways to Reconstruct the Areas of Historical Objects of Old Cities in Uzbekistan. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 2(2), 95-98.
5. Salimov, O. M., Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). Use of Local Building Materials in the Natural Climate of Central Asia. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 129-130.



6. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 679-683.
7. Ruxshona, A., & Muxlisa, N. (2024). RECONSTRUCTION AND RESTORATION WORK CARRIED OUT AT THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 2(4), 89-97.
8. Azizbek, T., & Damirjon, A. (2024). Ancient Monument in our Country "Ishratxona". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 994-999.
9. Sa'dullayeva Nigora, X. S. (2024). Stages of Formation and Application of "Gothic" Architectural Style. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 1004-1008.
10. Qaxramonovich, A. K. (2024). XONBANDI TO'G'ONI. *Miasto Przyszłości*, 45, 606-611.
11. Oybekovna, I. S. QASHQADARYO VILOYATI KO'K GUMBAZ MASJIDI.
12. Dilrabo, K. (2023). PROBLEMS IN THE RECONSTRUCTION OF DECOR ELEMENTS OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF UZBEKISTAN. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 633-637.
13. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). Amir Temur And The Architectural Decorations Of The Timurid Era Of Central Asia And Their Characteristics. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(9), 121-125.
14. Jurayeva, E., & Kholdorova, D. (2023). ESTABLISHING AN EXEMPLARY CULTURAL AND RECREATION PARK COMPLEX. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(11), 50-54.
15. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. E. (2023). ANALYSIS OF FOREIGN AND DOMESTIC EXPERIENCE IN DESIGNING HISTORICAL LOW-RISE RESIDENTIAL BUILDINGS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 147-152.
16. Ulugbek, T., & Marjona, K. (2024). Revitalizing Old Facades: Innovations in Facade System Installation and Preservation. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 25(1), 10-21070.
17. Marjona, K., & Iroda, S. I. (2023). THE ESSENCE OF THE IMAM AL-BUKHARI COMPLEX IN OUR CULTURAL HERITAGE AND ITS SIGNIFICANCE TODAY. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 662-665.
18. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Трёхмерная графика. *Журнал "Интернаука"*, (3 (7)), 25.
19. Жураев, Т. Х., Хамраев, Н. Ш., Ураков, О. Х., Абдуманнонов, М., & Саидова, Г. К. (2020). РЕШЕНИЕ КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ПОСТРОЕНИЯ ПЛОСКИХ СОПРЯЖЕНИЙ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМ МОДЕЛИРОВАНИЕМ ДЛЯ НАПРАВЛЯЮЩИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ РАБОЧИХ ОРГАНОВ. In *Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве* (pp. 346-348).
20. Тошев, И. И., & Ураков, О. Х. (2017). Резьба по дереву в Узбекистане. *Интернаука*, (2-1), 11-13.
21. Khayitboevich, U. O., & Gulnoza, U. (2023). THE HISTORY OF CERAMIC DECORATIONS APPLIED TO CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *American Journal of Engineering, Mechanics and Architecture (2993-2637)*, 1(10), 210-215.
22. Khayitboevich, U. O., & Dilshoda, B. (2023). ENGINEERING CONSERVATION OF CULTURAL HERITAGE OBJECTS. *JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE*, 517-520.



23. Xayitboyevich, U. O. (2023). NUROTA VOHASINING TURAR JOYLARNING KOMPOZITSION VA REJAVIY-TARXIY YECHIMI. JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE, 171-174.
24. Khayitboevich, U. O. (2023). Repair Works Carried Out In The Architectural Monuments Of The City Of Nurota. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN, 4(11), 56-61.
25. Khaitboevich, U. O. (2021). Ancient nurata karizs. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 115-120.
26. Жураев, Т. Х., Волошинов, Д. В., & Ураков, О. Х. (2020). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ЛАБОРАТОРИИ ГЕОМЕТРИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В РАЗРАБОТКЕ РАБОЧИХ ОРГАНОВ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 95-97).
27. Berdiyev, M. X., Jumaqulov, F. U., & Jalilov, Z. F. O. (2023, June). ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ФАОЛИЯТИ АСОСИДА САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ. In International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses (pp. 186-188).
28. UZOKOVICH, D. F. (2022). Features of Central Asian square-shaped building construction. "Development of Science and Technology: A Mechanism for Selecting and Implementing Priorities", 24-28.
29. Fozil Uzokovich, D. (2023). Finding a New Method of Geometric Harmonization Based on the Scientific Results of Scientists.
30. Abduazizovich, R. L. The Mausoleum of Humayun. International Journal of Scientific and Technology Research, 5, 7.
31. Abduazizovich, R. L. Babur's Creativity From Central Asia To India.
32. Abduazizovich, R. L., & Kilichevich, L. D. (2022, November). DEVELOPMENT OF ISLAMIC ARCHITECTURE AND ITS IMPACT ON INDIAN ARCHITECTURE. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 1-5).
33. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYZING THE TOMB OF BABUR IN KABUL. American Journal of Applied Science and Technology, 2(11), 01-05.
34. Rahimov Laziz Abduazizovich PhD, & Uralov Axtam Sindarovich. (2023). BABUR - THE PRINCE OF GARDENS. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities, 2(10), 1-8. Retrieved from
35. Abduazizovich, R. L. (2022). ANALYSIS OF HUMAYUN'S QILA-I-KUHNA MOSQUE. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(10), 269-275.
36. Abduazizovich, R. L. (2021). Din-panah The City Of Humayun. European Scholar Journal, 2(10), 52-54.
37. Rahimov, L. A. (2018). MOSQUES OF BABUR. In Сборник конференций (pp. 202-206).
38. Abduazizovich, R. L. (2021). THE ROLE OF BABUR IN ARCHITECTURE IN INDIA AND THE PRINCIPLES OF THE DEVELOPMENT OF THE ARCHITECTURE OF THE BABURIDS. World Bulletin of Social Sciences, 3(10), 1-3.

